
The problem of lacunae and English national-cultural specific units (realia) in detective discourse in the translation of Agatha Christie's Novels

Shokhidova Mashkhura Kobuljonovna
mashkhurashokhidova@gmail.com

Senior Lecturer,
Namangan State University

Annotation *This article examines the problem of national-cultural specific units (realia) and the resulting lacunae specific to detective discourse, based on the Uzbek translations of Agatha Christie's detective novels. In the detective genre, every lexical detail – particularly administrative-legal, judicial system, and social titles – carries conceptual significance. Preserving national color and genre specificities during the translation process remains one of the pressing issues in translation studies. During the study, lacunae unique to English legal and social life that lack direct equivalents in the Uzbek language were categorized into groups. The translation strategies applied to recreate them in the Uzbek text (calque, transliteration, descriptive translation, functional substitution) were elucidated through a comparative-evaluative method. The results indicate that, in order to preserve the detective intrigue and logical chain, compensating for lacunae by considering discursive features is more effective than relying on neutral equivalence.*

Keywords *Detective discourse, realia, lacuna, Agatha Christie, translation strategies, legal lexicon, equivalence, stylistics*

Agata Kristi romanlari tarjimasida detektiv diskursga xos ingliz milliy-madaniy birliklari (realiyalar) va lakunalar muammosi

Shoxidova Mashxura Kobuljonovna
mashkhurashokhidova@gmail.com

Katta o'qituvchi,
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya *Ushbu maqolada Agata Kristi detektiv romanlarining o'zbekcha tarjimalari misolida detektiv diskursga xos milliy-madaniy birliklar (realialar) va ular asosida yuzaga keladigan lakunalar muammosi tadqiq qilingan. Detektiv janrida har bir leksik detal, ayniqsa ma'muriy-huquqiy, sud tizimi va ijtimoiy unvonlar konseptual ahamiyatga ega bo'lib, ularni tarjima jarayonida milliy kolorit va janr xususiyatlarini saqlash tarjimashunoslikning dolzarb muammolaridan biridir. Tadqiqot davomida ingliz huquqiy va ijtimoiy hayotiga xos bo'lgan, o'zbek tilida to'g'ri muqobili bo'lmagan lakunalar guruhlariga ajratilib, ularni o'zbekcha matnda qayta yaratishda qo'llanilgan tarjima strategiyalari (kalkalash, transliteratsiya, tavsifiy tarjima, funksional muqobillashtirish) qiyosiy-baho berish usuli orqali yoritilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, detektiv intrigani va mantiqiy zanjirni saqlashda neytral ekvivalentlikdan ko'ra diskursiv xususiyatlarni hisobga olgan holda lakunalarni kompensatsiya qilish samarali hisoblanadi.*

Kalit so'zlar *Detektiv diskurs, realiyalar, lakuna, Agata Kristi, tarjima strategiyalari, huquqiy leksika, ekvivalentlik, stilistika*

«Проблема лакун и английских национально-культурных единиц (реалий) в детективном дискурсе в контексте перевода романов

Шохидова Машхура Кобулжоновна
mashkhurashokhidova@gmail.com
Старший преподаватель,
Наманганский государственный университет

Аннотация *В данной статье на примере узбекских переводов детективных романов Агаты Кристи исследуются национально-культурные единицы (реалии), присущие детективному дискурсу, и возникающая на их основе проблема лакунарности. В детективном жанре каждая лексическая деталь, особенно административно-правовые термины, наименования судебной системы и социальные титулы, имеет концептуальное значение. Сохранение национального колорита и жанровых особенностей в процессе перевода остается одной из актуальных проблем переводоведения. В ходе исследования лакуны, характерные для английской правовой и общественной жизни и не имеющие прямых эквивалентов в узбекском языке, были классифицированы по группам. С помощью сравнительно-оценочного метода освещаются переводческие стратегии (калькирование, транслитерация, описательный перевод, функциональное замещение), примененные для их воссоздания в узбекском тексте. Результаты показывают, что для сохранения детективной интриги и логической цепочки более эффективной является компенсация лакун с учетом дискурсивных особенностей, нежели использование нейтральной эквивалентности.*

Ключевые слова *Детективный дискурс, реалии, лакуна, Агата Кристи, стратегии перевода, правовая лексика, эквивалентность, стилстика*

Kirish

Badiiy tarjima nafaqat lisoniy kodlarni almashtirish, balki o'zaro farqli ikki madaniyat, ijtimoiy tizim va mentalitet o'rtasidagi o'zaro tushunish ko'prigini shakllantirish jarayonidir. Til va madaniyatning bunday uzviy aloqadorligi tarjimashunoslikda milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan birliklarni, xususan, realiyalar va lakunalarni o'g'irish muammosini doimo dolzarb qilib qo'yadi. Agar ushbu lingvistik hodisalar o'ziga xos qat'iy qoliplar va syujet

mantiqiga ega bo'lgan detektiv janrida namoyon bo'lsa, tarjimon zimmasidagi mas'uliyat yanada ortadi. Detektiv diskurs shunchaki voqeaband matn yoki badiiy tasvir emas, balki ma'lum bir mamlakatning sud-huquq tizimi, politsiya tizimidagi mansab pog'onalari, ma'muriy tuzilishi va ijtimoiy-madaniy me'yorlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan institutsional muloqot maydonidir.

Ingliz detektiv adabiyoti vakili Agata Kristi asarlari XX asr boshlaridagi Britaniya jamiyati,

uning huquqiy va ijtimoiy tartibotlarini o'zida mukammal aks ettirishi bilan ajralib turadi. Muallif yaratgan matnlarda har bir leksik detal – politsiya unvoni, sud amaldorining maqomi, yuridik hujjat turi yoki ijtimoiy tabaqalanish belgilari shunchaki fon bezagi emas, balki jinoyat zanjirini yechishda, o'quvchini chalg'itishda yoki izquvarga to'g'ri yo'l ko'rsatishda muhim vazifani bajaradi. Binobarin, ushbu asarlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'g'irishda tarjimonlar jiddiy lisoniy to'siqlarga – lakunallik fenomeniga duch keladilar.

Tarjimashunoslikda lakunalar muammosi keng o'rganilgan bo'lsada, aynan detektiv diskurs doirasidagi sud-huquqiy lakunalarning o'zbekcha tarjimalarda asar komponenti sifatida qayta yaratilishi tizimli va qiyosiy tadqiq etilmagan. O'zbek tilidagi tarjimalarda ingliz huquqiy va ma'muriy tizimiga xos bo'lgan birliklarning ko'pincha umumlashirib yoki neytrallashtirib o'g'irilishi, asarning janr tabiatiga va milliy jozibasiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Agata Kristi romanlarining o'zbekcha tarjimalari misolida detektiv diskursga xos ingliz milliy-madaniy birliklari va lakunalarini tasniflash, ularning tarjimada qayta yaratilish darajasini aniqlash hamda yuzaga kelgan leksik-semantik yo'qotishlarni qoplashda ega bo'lgan eng samarali funksional-kontekstual kompensatsiya strategiyalarini asoslab berishdan iborat. Bu esa o'z navbatida o'zbek tarjimashunosligida diskursiv yo'nalishdagi xususiy muammolarni yoritishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Jahon adabiyotshunosligi va tarjimashunosligida detektiv janr matnlarining til, uslub va amaliy xususiyatlarini o'rganish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Agata Kristi romanlaridagi ingliz milliy-madaniy birliklari va ularning tarjima tilida bo'shliq (lakuna) hosil qilishi, muallifning o'ziga xos uslubi hamda matn tuzilishining tarjima tilida qayta yaratilishi olimlar e'tiborida.

Tarjimada vaqt o'tishi bilan yondashuv va to'g'ri yetkazish masalalarini A.A. Kasymbekova (2021) A. Kristi romanlari misolida chuqur tahlil qilgan. Tadqiqotchi "jamoaviy tarixiy tarjima" tushunchasini taklif qilib, tarjimadagi moslik darajasining o'zgarishini til o'zgarishi va jamiytdagi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'laydi. Muallif realialar va bo'shliqlar bilan bog'liq siyosiy to'g'rilik hamda o'quvchiga moslashtirish chegaralarini asosiy xususiyatlarni saqlash nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi. Detektiv matndagi madaniy qatlamlar, chuqur kontekst, ishoralar va realialarni o'rganishda M.M. Konkolning (2017) ishlari ahamiyatli. Olim A. Kristi asarlaridagi, xususan "The Murder of Roger Ackroyd" romanidagi nomlar, ishoralar va kinoyani tahlil qilib, tarjima jarayonida milliy o'xshashlar va izohlardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. V. Dao Txu Chang (2017) tadqiqotlarida esa his-tuyg'uli ifodalar, sirli muhit va qo'rquv kayfiyatining tarjima usullari orqali yetkazilishi A. Kristi romanlari ("Ten Little Niggers") misolida ko'rib chiqilgan. Muvaffaqiyatli tarjima matnning o'quvchiga ta'sirini saqlashi bilan birga realialar va bo'shliqlarni to'g'ri moslashtirishni talab etadi.

Mahalliy tarjimashunoslikda M.R. Abdullayeva (2025) milliy o'ziga xoslikni saqlash, muallif niyatini yetkazish va madaniy mos variantlarni topish muammolarini tahlil qiladi. Tarjimon til va madaniyat muhitini yaxshi bilmasa, realialar tarjimasida xatolar va bo'shliqlar yuzaga kelishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, detektiv diskurs tarjimasini o'rganishda oddiy til tahlilidan ko'ra, tarjimashunoslik va aqliy uslubiyotning birgalikdagi yondashuvi muhimroq. Ingliz realialari va bo'shliqlari tarjima tilida tarjimon uslubi orqali yangi madaniy muhitda qayta yaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada Agata Kristi romanlaridagi ingliz milliy-madaniy birliklari (realialar) va ularning tarjima tilida bo'shliq (lakuna) hosil qilishi muammosini o'rganishga qaratilgan bo'lib, kompleks yondashuv asosida

amalga oshiriladi. Tadqiqotning umumiy metodologiyasi qiyosiy-tavsifiy va lingvokulturologik usullarga asoslanadi. Unda vaqt o'tishi bilan yondashuv (diaxronik), qiyosiy tahlil va pragmatik yondashuvlar birgalikda qo'llaniladi. Bu metodlar adabiyotlar tahlilida ko'rsatilgan olimlarning, A.A. Kasymbekova, M.M. Konkol, V. Dao Txu Chang, M.R. Abdullayevlar tajribalariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning asosiy materiali sifatida Agata Kristining "The Body in the Library" romani va uning K. Nosirova tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan "Kutubxonadagi murda" nomli tarjimasini tanlab olindi. Matnlarni qiyosiy-diskursiv jihatdan o'rganishda quyidagi ilmiy usul va metodlardan foydalanildi:

1. *Tavsifiy usul* – ingliz tilidagi milliy-madaniy birliklar (realialar)ning turlarini aniqlash va tavsiflash.
2. *Qiyosiy tahlil* – asl matn va tarjimalardagi realialar hamda bo'shliqlar (lakunalar)ni solishtirish.
3. *Kontekstual tahlil* – chuqur kontekst, ishoralar va kinoyalarning tarjima matnida saqlanish darajasini o'rganish.
4. *Pragmatik tahlil* – tarjima matnining o'quvchiga ta'siri, sirli muhit va his-tuyg'uli ifodalarni yetkazish samaradorligini baholash.
5. *Transformatsion tahlil* – tarjima jarayonida qo'llaniladigan jumladan, to'g'ridan-to'g'ri tarjima, moslashtirish, izoh qo'shish usullarni tahlil qilish.

Ushbu metodologiya tadqiqotning ilmiy obyektivligi va ishonchligini ta'minlaydi hamda detektiv diskursdagi realialar va lakunalar muammosini har tomonlama yoritishga yordam beradi.

Tahlillar va Natijalar

Agata Kristining «Kutubxonadagi murda» (1985) (The Body in the Library) romani va uning o'zbekcha tarjimasini ("Kutubxonadagi murda", tarjimon K. Nosirova) (2018) materiallari asosida o'tkazilgan qiyosiy-tavsifiy tahlil ingliz detektiv diskursiga xos milliy-madaniy birliklar (realialar)ning tarjima

jarayonida qanday aks etishini aniq ko'rsatdi. Tadqiqotning asosiy e'tibori ma'muriy-huquqiy, sud tizimi va ijtimoiy unvonlarga qaratildi, chunki ushbu birliklar detektiv janrida syujetning mantiqiy zanjiri, ijtimoiy ierarxiya va muhitning ishonchligini ta'minlovchi konseptual elementlar hisoblanadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, romanda ingliz huquq-tartibot tizimining ierarxiyasi chuqur aks etgan. Asl matnda quyidagi unvonlar faol qo'llaniladi: Colonel (Christie, 1985), Chief Constable (Christie, 1985), Inspector (Christie, 1985), Constable (Christie, 1985), principal magistrate (Christie, 1985), hamda ijtimoiy unvonlar Mrs, Miss, Vicar. Bu birliklar nafaqat qahramonlarning ijtimoiy mavqeini, balki Angliya qishloq zodagonlari jamiyatining ierarxik tuzilishini ham ifodalaydi. O'zbekcha tarjimasida ko'pchilik unvonlar transliteratsiya va kalkalash usullari orqali berilgan. *Colonel* → *Polkovnik* (Nosirova, 2018), *Inspector* → *Inspektor*, *Constable* → *Konstebl*. Funksional muqobillashtirish: Chief Constable → grafik bosh konstebl yoki bosh konstebl; principal magistrate → okrug bosh sudyasi. Bunday yondashuvlar umumiy holda muvaffaqiyatli bo'lgan bo'lsada, ba'zi hollarda lakunalar yuzaga kelgan. Masalan, ingliz tilidagi *Chief Constable* ning ma'muriy-huquqiy ma'nosi ya'ni graflik darajasidagi yuqori lavozim o'zbek tilida to'liq ifodalanmaydi, chunki O'zbekistonda bunday tuzilma yo'q. Tarjimon bu lakunani grafik bosh konstebl shaklida qisman kompensatsiya qilgan, ammo bu ibora o'quvchida to'liq madaniy assotsiatsiya uyg'otmasligi mumkin. Qiyosiy tahlil natijasida qo'llanilgan tarjima strategiyalarining quyidagi ustunliklari va kamchiliklari aniqlandi. To'g'ridan-to'g'ri tarjima va kalkalash (*Colonel* → *Polkovnik*, *Inspector* → *Inspektor*) detektiv intrigani saqlashda samarali bo'ldi, chunki bu unvonlar o'quvchiga qahramonlarning rasmiy mavqeini tez yetkazadi. Tavsifiy tarjima (*principal magistrate* → *okrug bosh sudyasi*) madaniy bo'shliqni to'ldirishga yordam berdi, ammo ba'zan matnning ixchamligini buzdi. Funksional muqobillashtirish ijtimoiy

nuanslarni saqlashda eng mos strategiya sifatida namoyon bo'ldi. Masalan, Mrs Bantry va Miss Marple kabi murojaat shakllari o'zbek tilida Missis Bantri va Miss Marpl shaklida saqlangan holda, inglizcha "gentry" madaniyatining hurmat va ierarxiya tuyg'usini yetkazishga muvaffaq bo'lingan. Shu bilan birga, pragmatik tahlil shuni ko'rsatdiki, ba'zi lakunalar detektiv muhitning sirli va begona tusini susaytirgan. Ingliz qishloq uyida sodir bo'lgan jinoyatning ijtimoiy keskinligi o'zbek o'quvchisi uchun biroz zaiflashgan, chunki *Chief Constable* va *magistrate* kabi lavozimlarning ingliz huquq tizimidagi ahamiyati to'liq ochilmagan. Tadqiqot natijalari quyidagilarni tasdiqlaydi: Detektiv diskursda ma'muriy-huquqiy va ijtimoiy unvonlar shunchaki leksik birlik emas, balki syujetning mantiqiy va psixologik asosini tashkil etuvchi konseptual unsurlardir.

O'zbek tilida ingliz realialarining to'liq ekvivalenti mavjud bo'lmaganda, diskursiv kompensatsiya (kontekst ichida izoh va funksional muqobillashtirish) neytral ekvivalentlikdan ko'ra samaraliroq usul hisoblanadi. Tarjima jarayonida milliy koloritni saqlash va o'quvchiga detektiv janrning begonaligi tuyg'usini yetkazish o'rtasidagi muvozanatni topish tarjimashunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, Agata Kristi romanlarining o'zbekcha tarjimalarida lakunalar bartaraf etishda tarjimonlar asosan muvaffaqiyatli strategiyalarni qo'llagan, ammo ba'zi murakkab huquqiy-ijtimoiy realialar hali ham chuqurroq pragmatik va madaniy moslashtirishni talab etadi. Kelgusida boshqa detektiv asarlar materialida bu kuzatuvlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Agata Kristi romanlarining o'zbekcha tarjimalarida detektiv diskursga xos ingliz milliy-madaniy birliklari va lakunalar muammosini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Detektiv janrida ma'muriy-huquqiy terminlar, sud tizimi unvonlari va ijtimoiy tabaqalanish belgilari shunchaki lisoniy birlik emas, balki syujet mantiqi va

detektiv intriganini belgilovchi konseptual unsurlardir. Ingliz huquqiy va ijtimoiy hayotiga xos bo'lgan realiyalar o'zbek tilining institutsional tizimida mutloq lakunalarini tashkil qiladi. Tarjimalarda qo'llanilgan kalkalash, transliteratsiya va funksional muqobillashtirish strategiyalari asar syujetini saqlashga xizmat qilsa-da, ba'zan britancho sud-huquq ierarxiyasining pragmatik yukini neytrallashtirib qo'ygan.

Detektiv diskursda milliy kolorit va janr xususiyatlarini to'liq saqlash uchun neytral ekvivalentlikdan ko'ra, diskursiv kompensatsiya (kontekstual funksional muqobillashtirish va matn ichi izohlar) eng samarali strategiya hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot Agata Kristi romanlari tarjimasida detektiv diskursga xos ingliz milliy-madaniy birliklari (realiyalar) va lakunalarini tarjima qilish masalalari badiiy tarjimashunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, detektiv asarlarda uchraydigan milliy-madaniy birliklar nafaqat voqelikni tasvirlash vositasi, balki asarning tarixiy, ijtimoiy va madaniy muhitini shakllantiruvchi muhim diskursiv element hisoblanadi. Shu sababli ularni tarjima qilishda faqat lug'aviy ekvivalentlarni tanlash yetarli bo'lmay, ularning pragmatik, stilistik va lingvomadaniy funksiyalarini ham saqlab qolish muhimdir.

Xulosa

Tadqiqot davomida Agata Kristi romanlarida ingliz jamiyatiga xos maishiy hayot, huquqiy tizim, ijtimoiy tabaqalanish, ta'lim, transport, ovqatlanish madaniyati, unvonlar, geografik nomlar hamda kundalik turmush bilan bog'liq ko'plab realiyalar uchrashi aniqlandi. Ushbu birliklarning aksariyati o'zbek tilida to'liq muqobiliga ega emasligi sababli tarjimada lakunalar yuzaga keladi. Bunday hollarda transliteratsiya, transkripsiya, tavsifiy tarjima, funksional ekvivalent, izohlash va madaniy moslashtirish kabi usullar tarjimaning kommunikativ samaradorligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, detektiv diskursning asosiy xususiyatlari bo'lgan sirlilik, mantiqiy izchillik, psixologik taranglik va intriga tarjima jarayonida saqlanishi asarning badiiy qimmatini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligi kuzatildi. Agar milliy-madaniy birliklar noto'g'ri yoki ortiqcha soddalashtirilgan holda tarjima qilinsa, nafaqat matnning milliy koloritiga, balki detektiv syujetning tabiiy rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Agata Kristi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda lingvistik kompetensiya bilan bir qatorda tarjimonning ingliz va o'zbek madaniyati, tarixiy voqeligi hamda

kommunikativ me'yorlarini chuqur bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimon realiyalar va lakunalarni bartaraf etishda milliy-madaniy koloritni saqlash hamda o'quvchi uchun matnning tushunarligini ta'minlash o'rtasida muvozanatni topa olishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, Agata Kristi romanlari tarjimasida detektiv diskursga xos ingliz milliy-madaniy birliklari va lakunalarni ilmiy asosda tadqiq etish badiiy tarjima nazariyasini yanada boyitadi, ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi lingvomadaniy tafovutlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda detektiv janr asarlarini tarjima qilish metodikasini takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratadi.

References:

1. Abdullayeva, M. R. (2025). Formation of alternative variants in the process of artistic translation (On the example of a work of *Such Is Life*). *International Journal of Artificial Intelligence*, 5(4), 1287–1288.
2. Christie, A. (1985). *The body in the library*. In *Miss Marple: The complete short stories* (pp. 1–224). Dodd, Mead & Company.
3. Kasymbekova, A. A. (2021). *Problema adekvatnosti v diakhronii perevoda (na materiale romanov A. Kristi)* [Abstract of Candidate of Philological Sciences dissertation, Moscow Region State University]. Mytishchi.
4. Konkol, M. M. (2017). Osobennosti perevoda vertikalnogo konteksta v klassicheskikh angliyskikh detektivakh na materiale proizvedeniy Agaty Kristi. *Filologicheskiye nauki v MGIMO*, 11, 93–99.
5. Kristi, A. (2018). *Kutubxonadagi murda* (K. Nosirova, Trans.). Spectrum Media Group. (Original work published 1942)
6. Vu Dao Thu Chang. (2017). Osobennosti perevoda detektivnogo rasskaza (na materiale detektiva Agaty Kristi «Desyat negrityat»). In O. I. Ulanovich (Ed.), *Gumanitarnyye tekhnologii v obrazovanii i sotsiosfere*. 147–150. Lipetsk State Pedagogical University named after P. P. Semenov-Tyan-Shansky.